


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyiberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	



TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIALARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH

Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Abstract. This article evaluates the impact of foreign direct investment (FDI) on enhancing export potential and provides a scientific and practical analysis of the role of investment in promoting export growth. The study investigates the relationship between foreign direct investment and export performance based on international academic literature, materials of the World Trade Organization, and statistical data on the economy of the Republic of Uzbekistan. Comparative, econometric, and economic-logical research methods were employed in the analysis.

Keywords: foreign direct investment, export potential, export competitiveness, export diversification, investment policy, export-oriented production, free economic zones, global value chains.

Annotatsiya. Maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning eksport salohiyatini oshirishga ta'siri baholangan hamda eksport o'sishini ta'minlashda investitsiyalarning roli ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro ilmiy adabiyotlar, Jahon savdo tashkiloti materiallari hamda O'zbekiston iqtisodiyotiga oid statistik ma'lumotlar asosida TTXI va eksport ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Tahlil jarayonida qiyosiy, ekonometrik va iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, eksport salohiyati, eksport raqobatbardoshligi, eksport diversifikatsiyasi, investitsiya siyosati, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, erkin iqtisodiy zonalar, xalqaro qiymat zanjirlari.

Аннотация. В статье дана оценка влияния прямых иностранных инвестиций на повышение экспортного потенциала, а также проведён научно-практический анализ роли инвестиций в обеспечении роста экспорта. В ходе исследования на основе международной научной литературы, материалов Всемирной торговой организации и статистических данных по экономике Республики Узбекистан изучена взаимосвязь между прямыми иностранными инвестициями и показателями экспорта. В процессе анализа использованы сравнительный, эконометрический и экономико-логический методы исследования.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, экспортный потенциал, конкурентоспособность экспорта, диверсификация экспорта, инвестиционная политика, экспортно ориентированное производство, свободные экономические зоны, глобальные цепочки создания стоимости.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan geosiyosiy keskinliklar fonida istiqbolni oldindan bashorat qilish imkoniyati cheklangan iqtisodiy sharoitda xalqaro qiymat zanjirlarining kengayishi tashqi savdo siyosatiga yangicha yondashuvlarni ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, eksport faoliyati iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishda har qachongidan ham muhim o'rin tutmoqda. Global miqyosda "2025-yilda to'lov balansida tovarlar va tijorat xizmatlarining jahon savdosi 8 foizga o'sib, 34,89 trln AQSh dollarini tashkil etgan. Bu oldingi yildagi 4 foizlik o'sishdan yuqori hisoblanadi. Tovarlarning savdosi 8 foizga o'sib, xizmatlar savdosi ham xuddi shunday sur'atlarda o'sgan. Global savdoda xizmatlarning ulushi 27,5 foizga yetib, taqqoslash uchun, bu ko'rsatkich 2005-yildan beri eng yuqori darajani qayd etgan". O'z navbatida, bu raqamlar global savdoda xizmatlarning barqarorligi va kengayib borayotgan rolini aks ettiradi. Shu bois dunyoning ko'plab mamlakatlari eksportni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, eksportchilar uchun qulay institutsional muhit yaratish va zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Hozirgi sharoitda tashqi bozorlarda raqobatning keskinlashuvi, xalqaro logistika xarajatlarining o'zgaruvchanligi, moliyaviy resurslar qiymatining ortishi hamda tashqi iqtisodiy xavflarning kuchayishi eksport

qiluvchi korxonalarning moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda eksport faoliyatini faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki moliyaviy dastaklarni samarali qo'llash orqali rag'batlantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Xususan, eksport kreditlari, eksport kafolatlari, eksport sug'urtasi, savdo moliyasi ("trade finance"), faktoring, forfeyting, lizing, subsidiyalar, soliq imtiyozlari hamda eksport infratuzilmasini moliyalashtirish mexanizmlari eksportchilarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan mamlakatlarda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti, qayta ishlangan mahsulotlar ulushi va tashqi savdo barqarorligi yuqori darajaga erishgan. Xususan, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Singapur kabi davlatlarda eksport-kredit agentliklari, eksport-import banklari va davlat kafolatlari tizimi orqali eksportchilarning moliyaviy xavflari sezilarli darajada kamaytirilgan. Natijada mazkur mamlakatlar xalqaro bozorlarda yuqori raqobatbardosh eksport salohiyatiga ega bo'lgan iqtisodiyotni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan.


O'zbekistonda so'nggi yillarda eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Eksport qiluvchi korxonalarga kreditlar ajratish, transport xarajatlarining bir qismini qoplash, xalqaro sertifikatlashtirish xarajatlarini subsidiyalash, eksport shartnomalarini sug'urtalash, eksportoldi va eksportdan keyingi moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar mamlakat eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirish, kichik va o'rta biznes subyektlarining tashqi bozorlardagi ishtirokini oshirish hamda xalqaro savdo moliyasi instrumentlaridan foydalanish darajasini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, eksport salohiyatini oshirishda moliyaviy dastaklarning iqtisodiy samaradorligini baholash, ularning ta'sir mexanizmlarini aniqlash va milliy iqtisodiyot sharoitiga mos moliyaviy qo'llab-quvvatlash modellarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatda eksport salohiyatini oshirish va uni moliyaviy dastaklar orqali qo'llab-quvvatlash masalalari xalqaro iqtisodiyot va moliya sohasidagi eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Ilmiy adabiyotlarda eksport faoliyatining o'sishiga ta'sir etuvchi quyidagi asosiy moliyaviy dastaklardan foydalanib kelinayotgani alohida qayd etilgan:



1-rasm. Eksport faoliyatining o'sishiga ta'sir etuvchi moliyaviy dastaklar

Eksport-kredit agentliklari faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar sezilarli darajada kengaydi. A. Klasen, S. Krummaker, J. Beck, J. Pennington va hammualliflar (2024) geosiyosiy o'zgarishlar, global qiymat zanjirlarining transformatsiyasi va tashqi savdodagi xavflar sharoitida eksport-kredit agentliklari milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik institutga aylanayotganini ta'kidlaydilar. Mualliflar ekspert intervyulari asosida eksport-kredit agentliklari tizimlari eksportchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatadilar.

J. Hur va H. Yoon (2025) tomonidan *The World Economy* jurnalida chop etilgan tadqiqotda eksport kreditlari va eksport sug'urtasining korxonalar rivojlanishiga ta'siri baholangan. Mualliflar zamonaviy ekonometrik usullardan foydalanib, davlat eksport-kredit xizmatlari eksport hajmi, bandlik va investitsiyalarni sezilarli darajada oshirishini isbotlaydilar. Shuningdek, moliyaviy cheklavlarga duch kelgan kichik va o'rta korxonalar mazkur instrumentlardan eng yuqori samara olishi qayd etilgan.



L. Zhao, D. Fan va C. Chen (2025) 143 ta mamlakat korxonalari ma'lumotlari asosida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati va eksport o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etganlar. Natijalarga ko'ra, moliyalashtirish imkoniyatining yaxshilanishi eksport qilish ehtimolini oshiradi, ammo ma'lum chegaradan keyin qo'shimcha moliyalashtirishning marjinal samarasi pasayadi. Mualliflar innovatsiyalar va korxona o'sishini mazkur bog'liqlikning asosiy transmissiya kanallari sifatida ko'rsatganlar.

A. Dorożyńska va T. Dorożyński (2022) xalqaro savdo moliyasi tizimida eksport-kredit agentliklarining o'rnini chuqur tahlil qilib, eksport kreditlari, sug'urta va davlat kafolatlari tashqi savdodagi bozor nuqsonlarini bartaraf etishning muhim institutsional mexanizmi ekanini asoslaydilar. Ular, ayniqsa, kichik va o'rta biznes uchun eksport moliyasi instrumentlarining ahamiyatini yuqori baholaydilar.

Sh. Azmi, Md. Nadeem va U. Nurkasymov tomonidan 2026-yilda Hindiston Eksport-import banki — Export-Import Bank of India (EXIM Bank) faoliyati asosida ARDL modelidan foydalangan holda o'tkazilgan tadqiqot eksport-kredit agentliklari rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport taklifini uzoq muddatda statistik jihatdan ahamiyatli darajada oshirishini ko'rsatgan. Shu bilan birga, uzoq muddatli eksport kreditlarining ta'siri qisqa muddatli kreditlarga nisbatan kuchliroq ekanini aniqlangan.

A. Matray, K. Müller, C. Xu va P. Kabir (2024) AQSh Eksport-import banki — US EXIM Bank faoliyati vaqtincha cheklangan davrni tabiiy eksperiment sifatida tahlil qilib, eksport moliyasining qisqarishi eksport hajmini keskin kamaytirishini isbotlaganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eksport moliyasidagi har bir 1 dollarlik qisqarish eksportning taxminan 4,5 dollarga kamayishiga olib kelgan. Bu eksport-kredit agentliklarining milliy eksport siyosatidagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mahalliy tadqiqotchilardan A. Ahmadjanov (2025) eksport operatsiyalarini moliyalashtirish milliy tizimini Jahon savdo tashkiloti talablariga moslashtirish masalalarini tadqiq etgan. Muallif eksport kreditlari, akkreditivlar, bank kafolatlari va xalqaro savdo moliyasi instrumentlarini O'zbekiston amaliyotiga keng joriy etish eksport raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, eksport operatsiyalarini moliyalashtirishda xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

A. Murotov (2025) savdo moliyasining eksport operatsiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilib, akkreditivlar, bank kafolatlari, faktoring va eksport sug'urtasi kabi instrumentlarning eksportchilar moliyaviy xavflarini kamaytirishdagi rolini yoritgan. Muallifning fikricha, O'zbekistonda *Trade Finance* xizmatlari hajmini kengaytirish tashqi savdo aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

X. Umarov, A. Buriyev va W. Hamid (2026) jahon iqtisodiyotida eksport-kredit agentliklarining o'zgarib borayotgan rolini tadqiq qilib, eksport kreditlash va eksport sug'urtasi tizimi tashqi iqtisodiy xavflarni kamaytirishda muhim institut ekanini qayd etganlar. Mualliflar xalqaro eksport-kredit agentliklari tajribasini O'zbekiston milliy eksportni qo'llab-quvvatlash tizimiga tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqqanlar.

Sh. Xudonazarov (2026) xorijiy mamlakatlarning eksportni moliyalashtirish tajribasini tahlil qilib, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy eksport-import banklari hamda eksport-kredit agentliklari faoliyatini qiyosiy baholagan. Muallif raqamli texnologiyalar, davlat kafolatlari va eksport sug'urtasini O'zbekiston eksport moliyasi tizimiga keng joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, O'zbekistonda eksportni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi — UNDP ishtirokida ham tahlil qilingan. Tadqiqotda eksportchilarning eksportoldi moliyalashtirish, eksport kreditlari, sug'urta xizmatlari va logistika xarajatlarini qoplash bo'yicha mavjud ehtiyojlari baholanib, xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning huquqiy, tashkiliy va institutsional jihatlari keng yoritilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyati nazariy tahlil va amaliy tavsiyalar bilan cheklangan bo'lib, moliyaviy instrumentlarning eksport salohiyatiga ta'sirini kompleks baholash, eksport kreditlari, eksport sug'urtasi, savdo moliyasi va davlat kafolatlarining samaradorligini aniq ko'rsatkichlar orqali o'rganish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot eksport salohiyatini oshirishda moliyaviy dastaklar ta'sirini kompleks baholash va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgani bilan mavjud ilmiy tadqiqotlardan farq qiladi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadqiqotlar, asosan, rivojlangan mamlakatlar eksport-kredit agentliklari faoliyatiga qaratilganini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda eksport salohiyatini oshirishda moliyaviy dastaklarning o'рни va iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini eksportni moliyaviy

qo'llab-quvvatlash, eksport kreditlari, eksport sug'urtasi, davlat kafolatlari va xalqaro savdo moliyasi instrumentlariga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, iqtisodiy-mantiqiy tahlil, guruhlash, umumlashtirish va ekonometrik baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil usuli asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyoti o'rganildi hamda eksport-kredit agentliklari, eksport-import banklari, sug'urta va davlat kafolatlari tizimlarining o'ziga xos jihatlari taqqoslandi.


Iqtisodiy-mantiqiy tahlil yordamida moliyaviy dastaklarning eksport hajmi, korxonalar bandligi, investitsion faollik, tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari va eksportchilarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etish mexanizmlari aniqlandi. Ekonometrik yondashuv esa moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari bilan eksport faoliyati natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro ilmiy nashrlar, Jahon savdo tashkiloti materiallari, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari, eksport-kredit agentliklari faoliyatiga oid ma'lumotlar hamda O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ko'rsatkichlari tashkil etdi. Olingan natijalar tahlil qilinib, ilmiy jihatdan umumlashtirildi va ular asosida milliy eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar ishlab chiqildi. Maqola matnini tayyorlash va ayrim ma'lumotlarni tizimlashtirish jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi, yakuniy ilmiy tahlil, xulosalar va mualliflik yondashuvi esa muallif tomonidan shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajribada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va eksport salohiyati o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishdagi izlanishlar cheklangan. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashtirish va investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi fonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning eksportga ta'sirini o'rganish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi chiziqli grafikda O'zbekiston iqtisodiyotining 2000–2024-yillar oralig'idagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari — to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), yalpi ichki mahsulot (GDP), eksport hajmi, tashqi savdo ochiqchiligi va aholi sonining dinamikasi tasvirlangan.



2-rasm. O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, YAIM, eksport hajmi, tashqi savdo ochiqchiligi va aholi soni ko'rsatkichlari dinamikasi

Grafikdan ko'rinadiki, YAIM (yashil chiziq) 2010-yildan boshlab sezilarli o'sishga ega bo'lgan va 2015-yildan so'ng jadal sur'atlarda ortib, 2020-yillarga kelib sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichga yetgan. Tashqi savdo ochiqchiligi (sariq chiziq) 2005–2015-yillarda nisbatan yuqori darajada bo'lgan, biroq 2017-yilda keskin pasayish kuzatilgan va keyinchalik yana ko'tarila boshlagan. Bu esa iqtisodiy islohotlar, tarif va bozor siyosatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Aholi soni (qizil chiziq) grafikda barqaror va izchil o'sib borgan bo'lib, har yili o'rtacha o'sish kuzatilgan.




Eksport (binafsha chiziq) esa YAIMga nisbatan ancha past darajada qolgan bo'lsa-da, 2015-yildan keyin asta-sekin o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. FDI (moviy chiziq), ya'ni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi YAIMga nisbatan kam o'zgaruvchan bo'lib, ayrim yillarda ko'tarilgan bo'lsa-da, umuman olganda, past darajada qolmoqda. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Umuman olganda, grafik eksport va savdo ochiqqligi bilan investitsiyalar o'rtasidagi tafovutni hamda iqtisodiy o'sishning demografik bazasini yaqqol ko'rsatib bermoqda.

Hisoblab topilgan to'rtta munosabat grafigi O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (FDI) turli makroiqtisodiy omillar bilan qanday bog'liqligini ko'rsatadi. Birinchi grafik (yuqori chapda) FDI va aholi soni (*Population*) o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Regressiya tenglamasiga ko'ra:

$$FDI = -3,3456 + 0,17726 \times Population$$

Ya'ni aholi sonining har bir million kishiga ko'payishi FDI ulushini o'rtacha 0,177 foizga oshiradi. Mazkur bog'liqlikning determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) 36,0 foizni tashkil etadi, bu esa o'rtacha darajadagi bog'liqlikni anglatadi. Ushbu natija aholi sonining o'sishi investitsiyaviy muhit uchun ijobiy indikator bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.



3-rasm. O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (FDI) turli makroiqtisodiy omillar bilan bog'liqligi

Ikkinchi grafik (yuqori o'ngda) FDI va YAIM (GDP) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu yerda tenglama quyidagicha:

$$FDI = 1,2366 + 0,01365 \times GDP$$

Unga ko'ra, YAIM 1 milliard dollarga oshganda, FDI o'rtacha 0,01365 foizga oshadi. Biroq ushbu modelda R^2 atigi 13,9 foizni tashkil etadi. Bu esa YAIMdagi o'zgarishlar FDI darajasini yetarlicha kuchli tushuntirib bera olmasligini bildiradi. Mazkur natija O'zbekiston iqtisodiyotining hajmi oshayotgan bo'lsa-da, bu holat to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi omil bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatadi.

Uchinchi grafik (pastki chapda) FDI va tashqi savdo ochiqqligi (*Trade openness*) o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Bu yerda regressiya chizig'i ijobiy bo'lsa-da, R^2 qiymati atigi 5,9 foizni tashkil etib, mazkur o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik deyarli mavjud emasligini bildiradi. Formulaga ko'ra:

$$FDI = 0,92135 + 0,01628 \times TO$$

Ya'ni savdo ochiqqligi 1 foizga oshganda, FDI o'rtacha 0,016 foizga oshadi. Biroq ushbu bog'liqlik juda zaif. Bu esa O'zbekistonning tashqi savdo ochiqqligi darajasi oshgan bo'lsa-da, mazkur holat FDI oqimiga kuchli ta'sir ko'rsatmayotgan bo'lishi mumkinligini anglatadi.

To'rtinchi grafik (pastki o'ngda) FDI va tovarlar hamda xizmatlar eksporti (ESG) o'rtasidagi bog'liqlikni tasvirlaydi. Ushbu modelda eng kuchli natija kuzatiladi:

$$FDI = 0,42364 + 0,13359 \times ESG$$

Bunda $R^2 = 43,8$ foizni tashkil etib, barcha modellar orasida eng yuqori tushuntirish darajasini beradi. Bu eksport hajmining oshishi FDI oqimlarini sezilarli darajada rag'batlantirganini anglatadi. Eksport hajmining har bir 1 milliard dollarga oshishi FDI ulushini o'rtacha 0,13 foizga oshirgan. Mazkur natija O'zbekistonning tashqi savdo salohiyati va mahsulotlar eksporti xorijiy investorlar uchun bevosita jozibadorlik omili bo'lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tarkibiy tenglamalar modeli (CEM) O'zbekistonda FDI — to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ESG

— tovarlar hamda xizmatlar eksporti o'rtasidagi bog'liqlikni aholi soni (Pop), tashqi savdo ochiqqligi (TO) va YAIM (GDP) kabi ekzogen omillar yordamida baholaydi. Modelning umumiy moslashuvi yaxshi: Log-likelihood = -322,97 va LR testi ($\chi^2 = 50,66$; $p = 0,0000$) modelning statistik jihatdan ahamiyatli ekanini bildiradi. Bu modelning asosiy tuzilmasi to'g'ri tanlanganini va o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni izohlashga yaroqli ekanini ko'rsatadi.

Birinchi strukturaviy tenglama — **FDI = f (Pop, TO, GDP)** natijalariga ko'ra, aholi sonining FDIga ta'siri ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli: koeffitsiyent = 0,170; $p = 0,003$. Ya'ni aholi sonining har bir million kishiga oshishi FDI ulushini YAIMga nisbatan 0,17 foizga oshiradi. Bu sezilarli ta'sir hisoblanadi.

Savdo ochiqqligi (TO) ham ijobiy ta'sirga ega: koeffitsiyent = 0,025; $p = 0,037$. Ya'ni savdo ochiqqligi 1 foizga oshganda, FDI ulushi YAIMga nisbatan 0,025 foizga ortadi. Biroq YAIMning (GDP) FDIga ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz: $p = 0,063$. Bu esa mamlakat iqtisodiy hajmining o'zi investitsiyalarni jalb qilishda hal qiluvchi omil emasligini ko'rsatadi.

Ikkinchi tenglama esa **ESG = f (FDI)** ko'rinishida bo'lib, FDIning eksportga ta'sirini o'lchaydi. Bu yerda koeffitsiyent = 3,279 va $p < 0,001$. Ushbu natija FDI 1 foizga oshganda, eksport hajmi o'rtacha 3,28 milliard dollarga ortishini anglatadi. Bu juda kuchli va statistik jihatdan ishonchli bog'liqlik bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar eksport salohiyatini kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biri ekanini tasdiqlaydi. FDI orqali texnologiyalar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va tashqi bozorlar bilan integratsiya darajasi oshib borgan.

1-jadval

Tarkibiy tenglamalar modeli

Number of obs = 23

Endogenous variables

Observed: FDI EGS

Exogenous variables

Observed: Pop TO GDP

Fitting target model:

Iteration 0: Log likelihood = -322.97923

Iteration 1: Log likelihood = -322.97923

Structural equation model

Estimation method: ml

Log likelihood = -322.97923

	Coefficient	std. err.	OIM z interval]	p>z	[95% conf.		
Structural							
FDI							
Pop	0.170	0.133	1.270	0.003	-0.091	0.431	
TO	0.025	0.019	1.320	0.037	-0.012	0.063	
GDP	0.003	0.020	0.170	0.063	-0.035	0.042	
_cons	-4.744	2.399	-1.980	0.048	-9.446	-0.042	
EGS							
FDI	3.279	0.774	4.230	0.000	1.761	4.797	
_cons	4.685	1.641	2.860	0.004	1.469	7.901	
var(e.FDI)	0.530		0.156	0.297	0.944		
var(e.EGS)	13.802		4.070	7.744	24.601		
LR test of model vs. saturated: chi2(3) = 50.66 Prob > chi2 = 0.0000							



Modeldagi dispersiyalar — var(e) esa qoldiqlarning tarqalishini ifodalaydi. FDI uchun dispersiya 0,530 ga teng bo'lib, bu FDI qiymatlarining o'zgaruvchanligi past ekanini bildiradi. ESG uchun esa dispersiya 13,802 ga teng bo'lib, bu eksport ko'rsatkichlarining yuqori darajada o'zgarib turganini bildiradi. Mazkur o'zgaruvchanlik eksport hajmiga ko'plab tashqi omillar, jumladan, xomashyo narxlari, global talab va transport infratuzilmasi ta'sir qilishini ko'rsatadi. Umuman olganda, modeldagi asosiy natijalar FDI eksportga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini, aholi soni va savdo ochiqqligi esa FDI darajasiga turtki berayotganini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar asosida O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) va eksport salohiyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchli hamda strategik ahamiyatga ega ekanini aniqlandi. Aholi sonining o'sishi FDI oqimlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa mamlakat ichki bozorining kengayib borayotganini va xorijiy investorlar uchun istiqbolli ekanini bildiradi. Savdo ochiqqligi va YAIM esa FDI darajasiga nisbatan zaifroq ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ularning rolini butunlay inkor etib bo'lmaydi.

Shuningdek, eksport (ESG) bilan FDI o'rtasidagi bog'liqlik eng kuchli va statistik jihatdan ahamiyatli ko'rsatkich sifatida qayd etildi. Bu O'zbekistonga kirib kelgan investitsiyalar eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Bunda FDI texnologiyalar transferi, yangi ish o'rinlarini yaratish va global bozorlar bilan integratsiyani rag'batlantirish orqali eksport hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Eksportga yo'naltirilgan klasterlarni rivojlantirish orqali FDI ni bevosita eksport sohalariga yo'naltirish va shu orqali eksport hajmini oshirishga erishish.

Investorlarga yengillik beruvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xususan, litsenziyalash va ruxsatnoma olish jarayonlarini raqamlashtirish hamda soddalashtirish.

Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali eksport mahsulotlarini yetkazib berish xarajatlari va vaqtini qisqartirish. Bu investorlar uchun qo'shimcha jozibadorlik yaratadi.

Hududiy erkin iqtisodiy zonalarida xorijiy investorlar uchun maxsus soliq, bojxona va moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish.

Ijtimoiy kapital va ishchi kuchi sifatini oshirish maqsadida texnik ta'lim hamda kasb-hunar o'quv dasturlarini FDI yo'naltirilgan sohalarga moslashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. World Trade Organization. World Trade Statistics [Elektron resurs]. – URL: https://www.wto.org/english/res_e/statistics_e/world_trade_statistics_e.htm (murojaat sanasi: 06.08.2026).
2. Klasen A., Krummaker S., Beck J., Pennington J. Navigating geopolitical and trade megatrends: Public export finance in a world of change // *Global Policy*. – 2024. – Vol. 15. – P. 1007–1014. – DOI: <https://doi.org/10.1111/1758-5899.13417>.
3. Hur J., Yoon H. How do export credit services shape firm growth? // *The World Economy*. – 2025. – Vol. 48, No. 2. – P. 214–237. – DOI: <https://doi.org/10.1111/twec.13644>.
4. Zhao L., Fan D., Chen C. H. Access to finance and firm exporting: An inverted-U relationship // *Research in International Business and Finance*. – 2026. – Vol. 81. – Art. 103212. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2025.103212>.
5. Dorożyńska A., Dorożyński T. The Role of Export Credit Agencies in Trade Financing. – Łódź: Lodz University Press, 2022. – DOI: <https://doi.org/10.18778/8331-045-9>.
6. Nurkasymov U., Ali S. Do export credit agencies stimulate export in developing countries? Insights from EXIM Bank of India // *Social Sciences & Humanities Open*. – 2026. – Vol. 13. – Art. 102893. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.ssaho.2026.102893>.
7. Matray A., Müller K., Xu C., Kabir P. EXIM's Exit: The Real Effects of Trade Financing by Export Credit Agencies. – Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2024. – NBER Working Paper No. 32019. – DOI: <https://doi.org/10.3386/w32019>.
8. Ahmadjanov A. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida eksport operatsiyalarini moliyalashtirish milliy tizimini xalqaro talablarga moslashtirish masalalari // *Economics and Innovative Technologies* [Elektron resurs]. – URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/670> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
9. Murotov A. Torgovoye finansirovaniye – zalog razvitiya eksportnyx operatsiy // *Moliya va bank ishi*. – 2025. – URL: <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/285> (murojaat sanasi: 06.08.2026).
10. Umarov X., Buriyev A., Hamid W. Jahon iqtisodiyotida eksport-kredit agentliklarining o'zgarib borayotgan roli // *Ilmiy jurnal*. – 2026. – Vol. 4, No. 1. – P. 236–242. – DOI: <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2026-vol4-iss1-pp236-242>.
11. Khudaynazarov Sh. Foreign Practices in Export Financing // *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*. – 2026. – Vol. 7, No. 1. – DOI: <https://doi.org/10.51699/cajtmf.v7i1.1098>.
12. United Nations Development Programme. Influence of Export Promotion Financial Instruments on Exporters' Competitiveness [Elektron resurs]. – Tashkent: UNDP Uzbekistan. – URL: <https://www.undp.org/uzbekistan/publications/influence-export-promotion-financial-instruments-exporters-competitiveness> (murojaat sanasi: 06.08.2026).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100